



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

ESHITISH QOBILIYATI BUZILGAN BOLALAR TA'LIMI

Abdullayeva Madinabonu Anvarbek qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universitet

Special pedagogy fakulteti talabasi

Madinabonua705@gmail.com

+998938171027

Annotatsiya:

Surdopedagogika – eshitish qobiliyati cheklangan shaxslarni o‘qitish va tarbiyalash bilan shug‘ullanuvchi maxsus pedagogika sohasi. Ushbu soha eshitish nuqsonlari bo‘lgan bolalar va kattalar uchun maxsus bilim berish usullarini ishlab chiqib, ularni jamiyat hayotiga to‘liq jalb qilishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Surdopedagogika, Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar, Koxlear implant, Imo-ishora, Eshitish apparati, Psixologik qo‘llab-quvvatlash, Nutqni rivojlantirish, Erta diagnostika, Audiologiya, Inklyuziv ta’lim O‘zbekistonda surdopedagogika, Maxsus intrnatlati maktablar.

Аннотация:

Сурдопедагогика – это специальная область педагогики, занимающаяся обучением и воспитанием лиц с нарушением слуха. Эта наука разрабатывает специальные методы обучения для детей и взрослых с дефектами слуха, помогая им полностью интегрироваться в общественную жизнь. Ключевые слова: Сурдопедагогика, дети с нарушением слуха, кохлеарный имплант, жестовый язык, слуховой аппарат, психологическая поддержка, развитие речи, ранняя диагностика, аудиология, инклюзивное образование, сурдопедагогика в Узбекистане, специальные интернат-школы.

Ключевые слова: Сурдопедагогика, дети с нарушением слуха, кохлеарный имплант, жестовый язык, слуховой аппарат, психологическая поддержка, развитие речи, ранняя диагностика, аудиология, инклюзивное образование, сурдопедагогика в Узбекистане, специальные интернат-школы.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

Annotation:

Surdopedagogy is a specialized branch of pedagogy dedicated to the education and upbringing of individuals with hearing impairments. This field develops specific teaching methods for children and adults with hearing defects, assisting them in fully integrating into social life.

Keywords: Surdopedagogy, children with hearing impairments, cochlear implant, sign language, hearing aid, psychological support, speech development, early diagnosis, audiology, inclusive education, surdopedagogy in Uzbekistan, specialized boarding schools

Surdopedagogikaning vazifalari.

1. Til va nutqni rivojlantirish: Eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun imo-ishora tili, labdan o'qish va og'zaki nutqni o'rgatish muhim ahamiyatga ega.
2. Psixologik qo'llab-quvvatlash: O'ziga ishonchni shakllantirish, ijtimoiy moslashuvni ta'minlash va o'z qobiliyatlarini rivojlantirish.

3. Pedagogik yordam:

Maxsus ta'lim dasturlari va vositalar orqali bolalarga sifatli ta'lim berish.

4. Ijtimoiy integratsiya:

Jamiyatda to'liq ishtirok etishlari uchun bolalarning moslashuvchanligini oshirish
Surdopedagogikaning asosiy yo'nalishlari.

1. Maxsus ta'lim metodikasi: Imo-ishora tili, audiologik texnologiyalar, maxsus qurilmalar (ko'xlear implantlar, eshitish moslamalari)dan foydalanishni o'z ichiga oladi.
2. Erta yoshdan rivojlantirish: Tug'ilganidan boshlab nutq va eshitish qobiliyatini diagnostika qilish va muvoq choralarni ko'rish muhimdir.
3. Oilaviy qo'llab-quvvatlash: Ota-onalar va yaqinlarga surdopedagogik yordam ko'rsatish.

Surdopedagogikaning muhim komponentlari

1. Audiologiya bilan bog'lanishi: Audiologlar eshitish qobiliyatini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

2. Psixologik yondashuv: Eshitish qobiliyati cheklangan shaxslarning psixologik xususiyatlarini o'rganish va ularga moslashgan rehabilitatsiya rejasini tuzish.

3. Lingvistika: Nutq buzilishlarini tuzatishda fonetika va grammatika asoslariga e'tibor qaratiladi.

4. Texnologik yutuqlar: Zamonaviy koxlear implantlar va raqamli eshitish moslamalari sohada inqilob qilmoqda.

Surdopedagogikadagi yangi tendensiyalar

1. Imo-ishora va og'zaki nutq integratsiyasi: Ikki uslubni birlashtirish orqali yanada samarali ta'lim berish.

2. Sun'iy intellekt texnologiyalari: Nutqni tanish va imo-ishorani o'rgatuvchi dasturlar rivojlanmoqda.

3. Genetik tadqiqotlar: Tug'ma eshitish muammolarini oldini olish bo'yicha ishlanmalar.

O'zbekistonda surdopedagogika yo'nalishi bo'yicha maxsus maktablar va rehabilitatsiya markazlari faoliyat yuritadi. O'zbekiston Respublikasi Maxsus pedagogika instituti va boshqa ilmiy muassasalar bu borada tadqiqotlar olib boradi. Mamlakatda imo-ishora tili rivojlanishiga e'tibor qaratilib, ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har ming nafar yangi tug'ilga chaqaloqdan biri tug'ma kar bo'lib tug'iladi, hayotining dastlabki 2-3 yilida esa yana uch nafar chaqaloq eshitish qobiliyatini yo'qotadi. O'zbekistonda har yili 300-400 nafar eshitishida nuqsoni bo'lgan va kar bolalar dunyoga keladi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalarning 60 foizini muolajalar yordamida davolash mumkin. Qolgan 40 foiz bolaning eshitish qobiliyati maxsus apparatlar (eshitish vositalari va koxlear implantlar) yordamida sekin-astalik bilan tiklanadi. O'zbekistonda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar va kasb-hunar kollejlarda maxsus guruhlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu toifadagi bolalar uchun tashkil etilgan maktab-internatlarda maktabgacha tarbiya bo'limi hamda umumta'lim maktab bo'limi mavjud. Shuningdek, 2022-2023 o'quv yilida inklyuziv ta'lim joriy etilgan umumta'lim maktablari soni 195 taga yetib, ularda 504 nafar imkoniyati cheklangan bolalar, jumladan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ham



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

ta'lim olmoqda. Eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalarning eshitish idrokini rivojlantirish jarayonida zaif eshituvchilikni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini rivojlantirishdagi maqsadlar quyidagilar bo'lishi mumkin: Kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish: Bolalarni atrofdagilar bilan samarali muloqot qilishga o'rgatish. Bu orqali ular fikrlarini ifoda etishni va boshqalarni tushunishni o'rganadilar. Tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantirish: Maxsus usullardan foydalanib, bolalarning tovushlarni eshitish va tushunish ko'nikmalarini oshirish. So'z boyligini kengaytirish: Lug'at boyligini oshirish va yangi so'zlarni o'rganish orqali nutqini boyitish. Nutqning grammatik to'g'riligini shakllantirish: Gap tuzishda to'g'ri grammatik qurilmalarni ishlatishni o'rgatish. Mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish: Nutq orqali o'z fikrlarini erkin va mustaqil ifoda eta olish ko'nikmalarini shakllantirish. Ijtimoiy moslashuvni qo'llab-quvvatlash: Jamiyatda o'zini erkin his qilish va boshqa bolalar bilan muloqot qilish imkoniyatlarini yaratish. Talab va ehtiyojlarini bildirish: Bolalarni o'z ehtiyoj va istaklarini so'zlash orqali ifoda qilishga o'rgatish. Bu maqsadlar pedagog va logopedlar tomonidan bolalarning individual ehtiyojlariga mos ravishda ishlab chiqilgan dasturlar yordamida amalga oshiriladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni kasbga yo'naltirish

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun kasbga yo'naltirish – ularning mustaqil hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun muhim bosqichdir. Bu jarayon bolalarning shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda olib boriladi. Kasbga yo'naltirishning asosiy bosqichlari. Erta aniqlash va rivojlantirish. Bolaning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash uchun diagnostika o'tkazish. Erta bosqichda bolalar uchun mos kasb-hunar ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni tashkil etish. Texnologik vositalar yordamida bolalarda mustaqil mehnat ko'nikmalarini shakllantirish. Maxsus ta'lim dasturlari. Maxsus o'quv muassasalarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan kasb-hunar ta'limi dasturlarini ishlab chiqish. Imo-ishora va raqamli kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, o'qitish jarayonini qulaylashtirish. Texnik sohalar, IT texnologiyalari,



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

qo'lda ishlashni talab qiluvchi kasblarga qaratilgan o'quv kurslarini tashkil etish. Kasb tanlashda yordam berish.

Psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali bolalarda kasb tanlash jarayonini osonlashtirish. Kasbga oid ko'nikmalarni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish. Ustoz-shogird tizimida bolalarni tajribali mutaxassislar bilan ishlashga jalb qilish. Oila va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi Ota-onalar bilan birgalikda bolalar uchun mos kasblarni aniqlash va rivojlantirish rejasini tuzish. Jamiyatda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning mehnatga layoqatli ekanligini targ'ib qilish. Mos kasblar va yo'nalishlar.

Mos kasblar va yo'nalishlar. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan quyidagi kasblar tavsiya etiladi: Texnologiya va IT: Dasturlash, grafik dizayn, kompyuter xizmatlari. San'at va hunarmandchilik: Rassomlik, haykaltaroshlik, tikuvchilik, kulolchilik. Texnik kasblar: Elektr jihozlarni ta'mirlash, chilangarlik, yog'ochsozlik. Qishloq xo'jaligi: Bog'dorchilik, issiqxonada ishlash. Tadbirkorlik: Mayda tadbirkorlik bilan shug'ullanish, internet-do'konlar yaratish. Maxsus kasb hunar kollejlarning sonini oshirish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash. Eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish. Ish beruvchilarni bu toifadagi shaxslar bilan ishlashga rag'batlantirish uchun imtiyozlar joriy etish. Kasbga yo'naltirish orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nafaqat mustaqil hayot kechirish, balki jamiyatga foyda keltiruvchi shaxslar bo'lib yetishishi mumkin.

Xulosa:

Suradopedagogika – inson qadr-qimmatini ta'minlashga yo'naltirilgan muhim fan sohasi. Zamonaviy texnologiyalar, psixologik yondashuv va maxsus metodlar orqali eshitish qobiliyati cheklangan shaxslarni jamiyatga muvaaqiyatli moslashtirish imkonini beradi. Ushbu sohaning rivoji ilmiy izlanishlar va innovatsiyalarga bog'liqdir.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.U.Xamidova “Maxsus pedagogika”-T.:”Fan va texnologiya”,2018.
2. Sultonov Sh., Abdurahmonova D. Maxsus pedagogika asoslari. Toshkent: O‘zbekiston milliy nashriyoti, 2020.
3. Ahmadaliyev A. Surdopedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Innovatsion ta’lim, 2018.
4. elektron resurs.